

Murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi

Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblandi:

- tabiiy va suyultirilgan gaz istemolchilari bo'lgan aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini haqqoniy himoya qilishni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2016 yil 28 dekabrda PF-4904-son Farmoniga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning "Hududgazta'minot" AJ tizimiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari, Tadbirkorlar virtual ofisi orqali kelib tushgan hamda Aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqiladigan og'zaki, yozma va elektron murojaatlari bilan ishlashni tashkillashtirish;

- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining shaxsiy, sayyor va ommaviy qabullarini "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq "Hududgazta'minot" AJ rahbariyati, shuningdek Aksiyadorlik jamiyatning tarkibiy bo'linma rahbarlari hamda mutaxassislari tomonidan o'z vaqtida tashkillashtirish;

- "Hududgazta'minot" AJ, uning tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarga tushgan og'zaki, yozma va elektron murojaatlar bilan ishlash yuzasidan monitoring va tahlilni olib borish;

- "Hududgazta'minot" AJga kelib tushgan, shuningdek Aksiyadorlik jamiyati apparatining tarkibiy bo'linmalari va quyi tashkilotlariga ko'rib chiqish uchun berilgan og'zaki, yozma va elektron murojaatlarning ko'rib chiqilishi yuzasidan nazoratni yuritish;

- "Hududgazta'minot" AJ tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Jamiyat rahbariyatiga taqdim etish.